

3-MAVZU: BUDDIZM

Reja:

1. Buddaviylikning vujudga kelishi.
2. Buddaviylik ta'limoti.
2. Buddaviylikning tarqalishi.
3. Buddaviylik manbalari.

Buddaviylikning vujudga kelishi. Buddaviylik (Buddaviylik) – uchta dunyo dinlari ichida eng qadimiysi hisoblanib, miloddan avvalgi VI-V asrlarda Hindistonda vujudga kelgan. Bu dinga e'tiqod qiluvchilar, asosan, Janubiy, Janubi-Sharqiy va Sharqiy Osiyo mamlakatlarida, Shri Lanka, Hindiston, Nepal, Butan, Xitoy, Singapur, Malayziya, Indoneziya, Mongoliya, Koreya, Vetnam, Yaponiya, Kombodja, Birma, Tayland, Laosda va qisman Evropa va Amerika qit'alarida, Rossiyaning shimoliy mintaqalari - Buryatiya, Qalmiqiyada istiqomat qiladilar. Hozirgi kunda dunyoda buddaviylar soni 750 mln.ga yaqin bo'lib, ulardan 1 mln.ga yaqini monaxlardir.

Buddaviylikni din yoki falsafa, mafkura yoki madaniyat qonunlari to'plami yoki hayot tarzi deb baholash mumkin.

Buddaviylik asoschisi haqida habar beruvchi folklor va badiiy adabiyotlar uni Siddxardxa Gautama, Shakyamuni, Buddha, Tadxagata, Djinna, Bxagavan kabi ismlar bilan zikr etadilar. Bu ismlarning ma'nolari quyidagicha: Siddxardxa - shaxsiy ismi, Gautama - urug' ismi, Shakyamuni - shaklar yoki shakiya qabilasidan chiqqan donishmand, Buddha - nurlangan, Tadxagata - shunday qilib, shunday ketgan, Djina - g'olib, Bxagavan - tantana qiluvchi. Bu ismlar ichida eng mashhuri Buddha ismi bo'lib, uning ismidan dinga buddaviylik nomi berilgan.

Hozirgi kunda Buddaning beshta biografiyasi ma'lumdir: "Maxavostu" – milodning II asrida yozilgan, "Lalitavistara" - milodning II-III asrlarida yuzaga kelgan, "Buddaxacharita" - Buddha faylasuflaridan biri Ashvagxoshey tomonidan

milodning I-II asrlarida yaratilgan, “Nidanakatxa” – milodning I asrida yozilgan va “Abnixishkramansutra”.

Buddaviylikning asoschisi miloddan avvalgi 1-ming yillikda yashagan Buddha hisoblangan. U tarixiy shaxs bo‘lib, 80 yil yashagan. Uning xususida turli rivoyatlar mavjud. Uning nomi hind tilida nurlangan, oliy haqiqatga erishgan degan ma'noni anglatadi. Rivoyatlarga qaraganda, keng ma'noda ko‘p marta ilohiy tug‘ilishlar tufayli mutloq barkamollikka erishgan; boshkalarga ham diniy najot yo‘lini ko‘rsata oladigan odam bo‘lgan.

Budda mil. avv. 563 yilda tug‘ilib, 483 yilda vafot etgan. Siddxardxa Shakya qabilasining podshosi Shuddxodananing o‘g‘li edi. Uning saroyi Ximolay tog‘lari etagida Kapilavasti degan qishloqda bo‘lgan (hozirda Nepal hududida). Onasi - malika Mayya. Podshoh o‘g‘lini orzu havaslar og‘ushida tarbiyalab, uni hech bir kamchiliksiz katta qiladi. Siddxardxa ulg‘ayib qo‘shni podshohlardan birining qizi Yashadxaraga uylanadi va o‘g‘il ko‘rib, unga Raxula deb ism qo‘yadi.

Tarixiy manbalarning dalolat berishicha buddaviylikning asoschisi shahzoda Siddxardxa vafot etgandan so‘ng Buddha - "haqiqatga erishgan" deb atalgan. U ushbu oliy maqsadga erishish uchun Gautama urug‘idan bo‘lgan eng obro‘li Shak'ya qabilasini tanlagan. Ana shundan bu diniy rivoyatda Buddha-Gautama nomi keng tarqalgan. Diniy rivoyatlarga ko‘ra Gautama hind qabilasi hukmdorlaridan birining o‘g‘li bo‘lib, u befarzand bo‘lgan, ammo uning xotini g‘oyibdan homilador bo‘lib, 45 yoshida o‘g‘il tuqqan. Bola tug‘ilganda mo‘jiza yuz bergan. Tabiiy hodisalar - yer qimirlab, chaqmoq chaqib, momaqaldiroq gumbirlab turgan. Uning ovozini Koinotdagi ilohiy kuchlardan tashqari barcha tirik mavjudodlar ham eshitib turganlar. Chaqaloqqa Siddxardxa (topshiriqni bajaruvchi) deb nom qo‘yganlar. U 7 kundan keyin yurib ketgan va gapira boshlagan.

Siddxardxaning otasi o‘g‘lini din yo‘liga bag‘ishlashga rozi bo‘lmay, unga yaxshi ma'lumot bergan hamda yaxshi sharoitlarda tarbiyalagan va u hech qanday qiyinchilik ko‘rmay o‘sgan. Sudxartxa o‘spirinligidayok o‘zining donoligi, kuchliligi va epchilligi bilan xammani hayratga solar ekan. U kasal yotgan kishini, o‘likni ko‘rgach hayotning mohiyati, maqsadi, og‘irliklari, kasallik va o‘lim bilan

bog'liqligini o'ylay boshlagan. Binobarin, hayotning behudaligani anglab, tarki dunyo qilgan, darvesh yo'liga kirgan. Bu bilan u kishilar boshiga tushadigan kulfatlar, azob-uqubatlar sabablarining mohiyatiga tezroq yetib, ulardan qutulish yo'lini topmoqchi bo'lgan. Nihoyat, 36 yoshida "haqiqiy bilim" egasi bo'lganligi ma'lum bo'ldi. Shundan so'ng u Buddha deb nom oladi. ("budda" so'zi ilohiy haqiqatga erishgan, degan ma'noni anglatadi). Shu tariqa unda ulug'vor haqiqat siri ochilgan, ular buddaviylik ta'limotiga asos qilib olingan.

Hech bir qiyinchilik va kamchilik ko'rmay o'sgan Siddxardxa bir kuni keksa cholni, bemorni hamda og'ir mehnatli rohibni uchratadi, va nihoyat, bir kishining vafotiga guvoh bo'ladi. Bundan qattiq ta'sirlagan shahzoda insoniyatni qiyinchilik va azobdan qutqarish yo'llarini axtarib saroyni tashlab ketadi. Bu vaqtda u 30 yoshda edi. U besh rohib bilan qishloqma - qishloq kezib yuradi. Ko'p vaqt bu rohiblarga hamrohlik qilib, ularning yo'llarida ma'lum maqsad yo'qligini, bu yo'l o'z oldiga qo'ygan maqsadi – insoniyatni azob uqubatdan qutqarishga olib bormasligini angelaydi va rohiblar jamoasidan ajraladi. U chakalakzor o'rmonlarda kezib, charchab bir daraxtning tagida dam olish uchun o'tiradi, va o'zicha, to haqiqatni topmaguncha shu erdan turmaslikka qaror qiladi. Bu o'tirishning 49 kuni uning qalbidan "Sen haqiqatni topding" degan sado keladi. Shu paytda uning ko'z oldida butun borliq namoyon bo'ladi. U hamma joyda shoshilinch qayoqqadir intilishni ko'radi. hech bir joyda osudalik yo'q edi. hayot nihoyasiz uzoqlikni ko'zlab o'tib ketayotgan edi. Inson aqli etmas bir kuch. Trishna - yashash, mavjud bo'lish umidi barchani tinchini buzar, halok qilar va yana qayta yaratar edi. Mana endi Buddha kimga qarshi kurashish kerakligini angladi. Shu ondan u Buddha – "nurlangan" deb ataldi. U tagida o'tirgan daraxt esa – "nurlangan daraxt" - Botxa deb atala boshladi.

Budda o'zining birinchi da'vatini Varanasi yaqinidagi Rishipatana bog'ida, o'zining besh rohib do'stlariga qildi va o'shalar uning birinchi shogirdlari bo'ldilar.

Shu kundan boshlab Buddha o'z shogirdlari bilan qishloqma-qishloq yurib o'z ta'limotni tarqatib o'ziga yangi izdoshlar orttiradi. Buddha 40 yil davomida o'z ta'limotini Hindistonning turli joylariga yetkazadi va 80 yoshida Kushtnagara degan joyda dunyodan o'tdi. Uning jasadi hind udumiga ko'ra u yerda kuydirilib, uning

xoki 8 ta budda jamoalariga bo‘lib yuborildi va har bir jamoa uni dafn etgan joyida ibodatxona barpo etdi.

Buddaning hayoti haqida turli afsonalar ham to‘qilgan. Bu afsonalarda aytilishicha, Buddha ko‘p yillar davomida yer yuzidagi turli mavjudotlar qiyofasida qayta tug‘ilgan: 84 marta ruhoniy, 58 marta podshoh, 24 marta rohib, 13 marta savdogar, 18 marta maymun, 12 marta tovuq, 8 marta g‘oz, 6 marta fil Shuningdek baliq, qurbaqa, kalamush, quyon kabi qiyofalarda qayta tug‘ilgan. Jami 550 marta qayta tug‘ilgan. U doimo qayerda, qay qiyofada tug‘ilishini o‘ziga o‘zi belgilagan.

So‘nggi marta uni xudolar insoniyatni to‘g‘ri yo‘lga boshlashi uchun inson qiyofasida yaratganlar. Bu afsonalarning ba'zilariga ko‘ra yer yuzida Gautamaga qadar 6 ta budda o‘tgan. Shuning uchun buddaviylikning ba'zi muqaddas joylarida 7 ta ibodatxona barpo etilgan. 7 ta Botxa daraxti o‘tkazilgan. Ba'zi afsonalar 24 ta Buddha avlodi o‘tgan desa, ba'zilar minglab Buddalar o‘tgan deb da'vo qiladi.

Har qanday dinlar kabi buddaviylikning ham kelib chiqishi sababini xalqlarning yashash sharoiti va hayotidan, muayyan davrdagi ijtimoiy munosabatlaridan izlash va topish lozim.

Qadimgi Hindistonda buddaviylik shakllangunga qadar murakkab sinfiy munosabatlar mavjud edi. Kishilar oliy, o‘rta va quyi tabaqalarga ajratilib, oliyga braxmanlar, harbiylar, o‘rta tabaqaga - dehqonlar, eng quyi tabaqaga oddiy xalq, xizmatkor, cho‘rilar kiritilar edi.

Buddaviylik quldorlik jamiyatida braxmanlik mazhablaridan biri sifatida paydo bo‘lgan. U braxmanlikni jonning ko‘chib yurishi, jannat va do‘zax qaqidagi aqidalarni saqlab qolgan. Buddaviylik Braxmanlikni jamiyatning tabaqalarga bo‘linishi to‘g‘risidagi ta'limotga qarshi chiqib, barcha kishilar e'tiqodda teng huquqli deb e'tirof etgan. Buddaviylikning diniy tenglik haqidagi goyasi odamlarning kastalarga bo‘linib ketishiga qarshi kurashda ijobiy rol o‘ynagan. Ayni paytda buddaviylik kishilar "azob-uqubat" chekishda va undan xalos bo‘lishda ham tengdirlar deb hisoblangan.

Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi tarixi va madaniyatida buddaviylik muayyan o‘rin egallagan. U zardushtiylik dini ta'sirida va u bilan yonma-yon

shakllangan dinlardan biri bo'lgan. Buddaviylik miloddan avvalgi VI-V asrlarda Hindistonning shimolida vujudga kelgan. Keyinchalik Janubi-Sharqiy va Markaziy Osiyo xamda Uzoq Sharq mamlakatlarida keng tarqalgan. Uning vujudga kelishi hind jamoalarida ro'y bergan muhim ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar - urug'-qabilachilik aloqalari va tartiblarining yemirilishi, sinfiy jamiyatning vujudga kelishi va yirik quldorlik davlatlarining paydo bo'lishi bilan bog'liq edi. III-asrga kelib dunyoviy jamiyat (imperator Ashoka) ning faol qo'llab-quvvatlashi natijasida mulkchilik darajasida yagona bo'lgan budda tashkiloti (monaxlik jamoasi-singxa) va diniy aqidachilik shakllangan.

Buddaviylikning Markaziy Osiyo va Sharqiy Turkistonda tarqalishi miloddan avvalgi II asrlarda bu yerlardagi qabilalarning avlodlari tugatgan g'rek-baqtriya podshohligining o'rnida qaror topgan Kushon imperiyasining rivojlangan davriga to'g'ri keladi.

Kushon imperiyasi o'zining eng gullagan davrida (milodning I-III asrlarida) hozirgi Markaziy Osiyoning bir qismini, Afg'oniston, Pokiston, Shimoliy Hindiston, ehtimol Uyg'uristonni ham o'z ichiga olgan. Kushon podshohligi davrida buddaviylik Hindistondan Markaziy Osiyoga, undan esa Buyuk ipak yo'li orqali Xitoy va Uzoq Sharqqa tarqalgan.

Keyinga o'n yilliklar mobaynida olib borilgan arxeologik izlanishlarning natijalari va tarixiy ma'lumotlarni umumlashtirgan holda tahmin qilish mumkinki, yaslomgacha bo'lgan davrda buddaviylik Markaziy Osiyo g'oyaviy hayotining muhim tarkibiy qismlaridan birini tashkil etgan. Buddaviylik faqat maxsus ibodatxonalarigagina emas, balki podsho saroylaridan boshlab, oddiy kambag'al deqqon va hunarmandlarning kulbasigacha kirib borgan dindir. Buddaviylikni qabul qilgan Markaziy Osiyo xalqpari diniy ibodatlar uchun har xil maxsus inshootlar kurganlar.

Buddaviylik bilan bog'liq obidalar, ibodatxonalar, haykallar, devorlarga solingan rasmlar Markaziy Osiyoda topilgan qadimgi tarixiy obidalar orasida muhim o'rin egallaydi. Buddaviylik bilan bog'liq imoratlar, qurilishlar hozirda ham Shimoliy Qirg'iziston, O'zbekiston va Turkmanistonning Janubiy tumanlarida,

Tojikistonda va Qozog‘iston janubida mavjuddir. Bular orasida eng yirik inshoot eski Termizdagi Qoratepa nomli g‘or ibodatxonasidir. Bu ochiq sariq rangli katta tepalik bo‘lib, unga qumtoshli g‘or binolar o‘yib solingan, yer ustida binolar barpo etilgan, bularning hammasi bir butun uyg‘un bo‘lgan buddaning 20-25 ibodatxonasini tashkil qilib, Kushon podshohligida buddaviylikning muhim ahamiyatga ega yekanligidan dalolat beradi. Devorlarga solingan rasmlarni, haykallarni, toat-ibodat buyumlarini, tangalarga, sovg‘a qilingan sopol idishlarga bitilgan har xil yozuvlarni o‘rganishlar qoratepaning milodning I asr oxiri va II asrning boshlarida bunyod qilinganligidan, arablar O‘rta Osiyoga kirib kelganlaridan keyin ular tugatilgan va keyinchalik vayronaga aylanganligidan dalolat beradi.

Buddaviylik ta'limoti. Buddaviylik qadimiy hind diniy-falsafiy ta'limotlari asosida vujudga kelgan, amaliyot va nazariyotdan iborat diniy tizimdir. Buddha yangi diniy qonun-qoidalar, rasm-rusumlar ishlab chiqmagan. Balki har bir inson tug‘ilish va o‘lim mashaqqatlaridan qutilishi uchun amal qilishi lozim bo‘lgan bir necha ko‘rsatmalarni ishlab chiqdi, xolos. Uning ta'limoti insoning hayolida, ishlarida va o‘zini tutishida samimiy oliyjanoblik g‘oyasini ilgari suradi. U vedalardagi gunohsizlik ta'limotini inkor qildi, hayvonlarni qonli suratda qurbonlik qilishni qoraladi, varna (kasta) tizimini va undagi ruhoniylarning boshqalardan ustunligini inkor qildi. Buddha oliy yaratuvchi kuchning borligiga shubha va ishonchsizlik bildirgan. Uning fikricha, eng muhimi insonning shaxsiy kamoloti va ezgu hayot kechirishidir. Buddha ta'limotining asosi “hayot – bu azob va uqubat” va “najot yo‘li mavjud” degan g‘oyadir. Buddaviylik qonuniyatlariga ko‘ra inson o‘ziga moslashgan mavjudot bo‘lib, o‘zida tug‘iladi, o‘zini o‘zi halok qiladi yoki qutqaradi. Bu narsa Buddaning ilk da'vatida mujassamlashgan 4 haqiqatda o‘z ifodasini topgan.

Birinchi haqiqat - “Azob uqubat mavjuddir” har bir tirik jon boshidan kechiradi, shuning uchun har qanday hayot - qiynoq, azob-uqubatdir. Tug‘ilish - qiynoq, kasallik - qiynoq, o‘lim - qiynoq, yomon narsaga duch kelish - qiynoq, yaxshi narsadan ayrilish - qiynoq, yomon narsadan ayrilish - qiynoq, o‘zi xohlagan narsaga ega bo‘lmaslik - qiynoq. Dunyo tuzilishining asosiy qonuni bir-biriga

bog'liqlik. hech bir narsa ma'lum sababsiz yaralmaydi. Lekin har bir hodisa yoki harakatning birlamchi sababini aniqlash mumkin emas. Shuning uchun buddaviylik dunyoni shu holicha qabul qilishga chaqiradi.

Buddaviylik ta'limotiga ko'ra, har qanday narsa yoki hodisa u hoh moddiy, xoh ma'naviy bo'lsin, dxarma (element)lardan tuzilgan. Bu elementlar, o'z xususiyatiga ko'ra, harakatsiz bo'lib, ularni harakatlantiruvchi kuch insonning hayol va so'zlaridir. Ob'ektiv haqiqat bu doimiy ravishda o'zgarib turuvchi dxarmalar oqimidir. harakatdagi dxarmalar mavjudligining 5 formasi - tana, sezgi, his-tuyg'u, harakat, anglashni yaratadi. Bu besh forma insonni tashkil qiladi. Inson ular yordamida yashaydi va borliq bilan aloqa qiladi, yaxshi yoki yomon ishlarni bajaradi. Bu narsa insonning o'limi bilan tugallanadi. Insonni tashkil qiluvchi besh forma (skandx) o'z navbatida qayta tug'iladi. yangi tananing xususiyatlari asos bo'luvchi besh natijani beradi: faoliyat, gumrohlik, xohish, istak va norma. Bu jarayon "hayot g'ildiragi"ni tashkil qiladi. "Hayot g'ildiragi"da doimiy ravishda aylanib, inson abadiy qiynoqqa duchor bo'ladi.

Ikkinchi haqiqat - "qiynoqlarning sabablari mavjuddir".

Inson moddiy narsalar yoki ma'naviy qadriyatlardan foydalanib, ularni haqiqiy va doimiy deb hisoblaydi hamda doimo ularga ega bo'lishga intiladi. Bu intilish hayot davomiyligiga olib boradi. Yaxshi yoki yomon niyatlardan tuzilgan hayot daryosi, orzular va intilishlar sababli kelajak hayot uchun karma hozirlaydi. Demak, qayta tug'ilish, yangitdan qiynoqlarga duchor bo'lish davom etadi. Buddaviylar fikricha, Buddadan keyin hech kim Nirvana holatiga erisha olmagan.

Uchinchi haqiqat - "qiynoqlarni tugatish mumkin". Yaxshi yoki yomon niyatlar, intilishlardan butunlay uzilish Nirvana holatiga to'g'ri keladi. Bu holatda inson qayta tug'ilishdan to'xtaydi. Nirvana holati, buddaviylar fikricha, "hayot g'ildiragidan" tashqariga chiqish, "men" degan fikrdan ajralib, insonning hissiy tuyg'ullarini to'la tugatishdir.

To'rtinchi haqiqat - qiynoqlardan qutilish yo'li mavjuddir. Bu yo'l - "Sakkizta narsaga amal qilish, ya'ni to'g'ri niyat qilish, to'g'ri o'zini tutish, to'g'ri anglash,

to'g'ri harakat qilish, to'g'ri muomalada bo'lish, to'g'ri fikr yuritish, to'g'ri gapirish.

Bu yo'ldan borgan inson Buddha yo'lini tutadi.

Bu sakkiz narsaga amal qilish meditatsiya deb nomlanadi.

Buddaviylik ta'limotida har qanday borlik (moddiylik) barcha ko'rinish va shakllardagi har qanday hayot - hamma mavjudodlarga azob beruvchi yomonlikdir. Yomonlik va azob-uqubatlarning sababi - insonning va barcha tirik mavjudotlarning bu dunyoga qayta tug'ilib kelish dunyosi (sansara) ga bog'langanligi, unga ko'ngil ko'rganligidir. Uningcha har qanday insoniy tuyg'u, hissiyot, ehtiros va istak azob-uqubatni chukurlashtiradi, "borliq girdobi" dan chiqib olish uchun g'aflatdan uyg'onish, dunyo mohiyatini anglash, hayotga chanqoqlikdan ko'ngilxushliklarga, lazzatlarga, hokimiyatga, boylikka intilishlardan voz kechish lozim va faqat shundagina "najot topish yo'li"ga kirish mumkin.

Ilk buddaviylikda bunday najotdan faqat zohid, yoki monaxgina umid qilishi mumkin edi. Oddiy insonlar esa faqat yaxshiroq qayta tug'ilishni umid qilishi, buning uchun esa u monaxlarga mo'l-ko'l xayr-sadaqa berishni hamda quyidagi 5 axloqiy talab (pancha-shila)ga amal qilishi kerak:

1. Har bir kishi yomonlik qilishdan o'zini tiyishi, tirik mavjudotni o'ldirmaslik.
2. O'g'rilik qilmaslik, ya'ni birovning mulkini olmaslik.
3. His-tuyg'ularga ortikcha berilmaslik, begona ayollarga ko'zolatmaslik.
4. Yolg'on gapirmaslik, rostgo'y bo'lishlik.
5. Ichkilik ichmaslik.

Buddaviylikda hamma narsa bilib bo'lmaydigan ruh - nirvanaga asoslanadi, dunyo real mavjud emas, u faqat kishilarning xayolida, bilib bo'lmaydigan ruhning namoyon bo'lishida, deb noto'g'ri ta'lim bergan. Bu bilan u sub'ektiv idealizm botqog'iga botgan. Buddaviylikdagi ruh - nirvananing ta'limoti "muqaddas haqiqat" deb atalgan. Unga ko'ra, ijtimoiy hayot va shaxsiy turmush azob-uqubatlarning sababi - kishilarning istaklari va nafslarida. Azob-ukubattan kutulish uchun kishilar o'zlarining istak va nafslarini tiyishlari, Buddha kashf etgan aqidalarga amal qilishlari

zarur. Buddaviylik azob-uqubat tushunchasini mutlaklashtirgan, borliqning barcha shakllarini, uning mazmunini, har qanday turmush tarzini azob-uqubat deb noto'g'ri hisoblagan. Shuning uchun buddaviylik nirvanani borliqning intihosi, deb asossiz tushungan. Buddaviylik ta'limoticha, jonli mavjudotlarning o'lishi uni tashkil etgan dxarma (element, zarracha) larning ajralib ketish jarayonidir. Bularning yangidan birikishi ilgari qilingan "savob va gunoh" lar bilan bog'liq bo'ladi. Dxarma nirvana darajasiga yetgandagina kayta tug'ilishlarga barham berilib, azob-uqubattan butunlay xalos etilar ekan.

Buddaviylik ta'limotiga ko'ra, azob-uqubatlardan xalos bo'lishning eng maqbul yo'li rohiblik (monaxlik) jamiyati (sangxa)ga o'tish hisoblanadi. Rohiblik boshqa dinlarga qaraganda buddaviylikda barvaqt vujudga kelgan bo'lib, hozirgi kunda buddaviylik mazhablaridan bo'lmish hinoyana tarqalgan mamlakatlar xalqlarining ijtimoiy hayotida g'oyat salbiy rol' o'ynamoqda. Rohiblar buddaviylikka e'tiqod qiluvchilar orasida noo'rin tarzda juda katta obro'ga sazovar bo'lib, ularga itoat etish va aytganini bajarish zarur, deb hisoblanadi.

Buddaviylik ta'limotida olam uch bosqichli deb tavsiflangan. Birinchisi eng yuqori olam bo'lib, unda mutlaq osoyishtalik hukmron. Unda faqat sof ruhgina mavjud. Bu olam ruxning makonidir. Buddaviylikning ta'lim berishicha, mutlaq iloqiy kuch - ruhni mutlaqo bilib bo'lmaydi. Birinchi olamda ruh moddiy olamdan tashqarida, u hech harakatsiz mutlak, osoyishta holatda yashaydi. Ikkinchi olam, rivoyatlarga ko'ra, ruhiy mavjudotlar bilan to'la jannat - bodisatvadir. Bu olamning hokimi Amitabadir. Uning olamida ruh o'z gunohidan xalos bo'lgan, lekin eng oliy olamga, nirvanaga, mutlaq bo'shliq va osoyishtalik olamiga ko'tarilmagan avliyolar yashar ekan. Buddalar kishilarga budda ta'limotini o'rganish, yaxshi yo'lga boshlab borish uchun yerga yuborilar ekan. Uchinchi olam, eng quyi olam bo'lib, unda odamlar va hayvonlar yashar ekan. Bu olamdagi ruh, qafasda yashar ekan, u hayot davomida ozod bo'lish hamda yuqori olamga ko'tarilishga harakat qiladi. Ruhning yuqori olamga ko'tarilishi odamlar qiladigan savobli ishlarga bog'liq. Agar odam buddaviylik ta'limotiga e'tiqod qilsa, yaxshilikka intilsa, uning joni qayta tug'ilishlardan so'ng jannatga va undan nirvanaga ko'tarilar ekan. Yomonlikka

mansub gunohkor kishilarning ruhi esa quyi dunyoda azoblanib, qafas ichida yuraverar va yuqori olamga hech ko'tarila olmas ekan. Agar insonning din ta'limotiga zid ishlari ko'payib ketsa, hirs yoki tovlamachilikka berilib, undan qutula olmasa, bunday odamning ruhi bir necha qayta tug'ilishlardan keyin do'zaxga tushar va unda abadiy azoblanar ekan.

Buddaviylikda qayta tug'ilish deganda yangidan paydo bo'lish tushunilmaydi, balki ilgari o'lgan odamlarning jismidan tarqalgan dxarmalarning yangi asosda birlashib, kelajak avlodga o'tishi tushuniladi. Shuning uchun buddaviylik inson o'z qilmishlari uchungina javobgar bo'lib qolmaydi, balki kelajak avlod uchun ham javobgar deb hisoblaydi. Agar odam yaxshi bo'lsa, budda ta'limotiga to'liq rioya qilsa, boy va e'tiborli bo'lsa, uning dxarmalari asosida qayta tugilgan odam xam boy va badavlat, sofdil bo'ladi. Aksincha, odam yomon bo'lsa, kambag'al, qashshoq bo'lsa, budda ta'limotiga rioya qilmasa, uning dxarmalaridan paydo bo'lgan odam ham kambag'al, qashshoq bo'lar ekan. Buning sababi avvalgi avlodlar yomon hayot kechirgani uchun berilgan jazodir, deb hisoblangan. Buddaviylik o'zining bu ta'limoti bilan jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlikni tub mohiyatini yashirishga harakat qiladi. Boshqa dinlar kabi buddaviylik ham hayotda passiv bo'lishni, taqdirga tan berishni targ'ib qiladi, zohidlikni yoqlab, ekspluatatsiyani oqlaydi.

Buddiylikning tarqalishi. Barcha jahon dinlari kabi buddaviylik ham ijtimoiy taraqqiyot natijasida va turli mamlakatlardagi ijtimoiy guruhlar tuzumlarining xususiyatlariga qarab, turli mazhablarga bo'linib ketgan.

Buddaviylikda bir necha mazhablar paydo bo'lgan. Bulardan eng yirigi I - asrda undan ajralib chiqqan hinayana ("kichik arava", tor yo'l ma'nosida) Shri Lanka, Birma kabi mamlakatlarda keng tarqalgan; maxayana ("katta arava", keng yo'l ma'nosida) Tibet, Xitoy, Yaponiya, Mongoliyada hamda Oltoy va Uzoq Sharqda yashovchi ba'zi xalqlar o'rtasida keng tarqalgan.

Buddaviylikka xos mazhablardan biri Tibet Mongoliyada tarqalgan bo'lib, u lamaizm degan nom bilan yuritiladi. Buddaviylikning bu mazhabi mahalliy xalqlar o'rtasida qadimdan mavjud bo'lgan diniy tasavvur va urf-odatlarni o'zlashtirgan.

Lamaizmda buddaviylikka xos tasavvurlar bilan bir qatorda, Buddaning yana kaytib kelishi va yer yuzida adolatli hokimiyat o'rnatishi to'g'risidagi rivoyatga keng o'rin berilgan. Lamaizmni ko'chmanchi, qoloq, savodsiz xalq hayotiga moslashtirishga urinish mavjud, va undagi ibodat qilish tartibi ham ancha soddalashtirilgan.

Hindistonda quldorlik tartiblari barham topishi bilan buddaviylik braxmanizmga tobora yaqinlashib borgan, va keyinchalik hinduizmga qo'shilib ketgan. XI-XII asrlarda buddaviylik Hindistonda o'z ta'sirini deyarli yo'qotgan.

Buddaviylik ta'limotini tartibga solish maqsadida 1871 yilda Birmada buddavistlarning maxsus ibodatxonasida Tripitakaning turli tarjimalari va variantlarini taqqoslash natijasida yagona teksti ishlab chiqilgan edi. Yangi tekst mazmuni 729 ta marmar plitaga tushirilgan edi. Bu yozuvlar saqlangan ibodatxona dunyo buddistlarining muqaddas joyiga aylantirilgan.

Markaziy Osiyo Xalqlarining tarixida buddaviylik muayyan o'rin egallagan. Buddizmning Markaziy Osiyoda tarqalishi miloddan avvalgi II asrlarda grek-baqtriya podshohligining o'rnida qaror topgan Kushon imperiyasining rivojlangan davriga to'g'ri keladi. Kushon imperiyasi o'zining eng gullagan davrida (I-III asrlar) Markaziy Osiyoning bir qismini, Afg'oniston, Pokiston, Shimoliy Hindistonni o'z ichiga olgan. Buddizm Hindistondan markaziy Osiyoga, undan esa buyuk ipak yo'li orqali Xitoy va Uzoq Sharqqa tarqalgan. Budda dinining qadimdan keng hududlarga tarqalganligini Beruniy ham o'z asarlarida eslatib o'tgan: "Budda e'tiqodi janubga tomon Suriya hududigacha tarqalgan edi, so'ng mazdaizm siquvi ostida budparastlar Eron va Iroqdan Balxning janubidagi mamlakatlarga ko'chib o'tganlar".

O'lkamiz xalqlarining Xindiston bilan Kushon davlati va Eftalit davrida yaxshi yo'lga qo'yilgan savdo-iqtisodiy munosabatlari tufayli hind madaniyati unsurlari bilan Budda dini kirib kelgan. "Buddizm sharqiy Eron va Movarounnahrda qaror topib, Balx hamda Buxorodek azim shaharlargacha etib kelgan. Yorkent, Xo'tan, Qashg'ar, Toshkent, Turfon, Kuchi va Qorashaharda Budda ibodatxonalari qad ko'targan.

Olimlarning ta'kidlashicha, buddaviylik zardushtiylik va moniylik dinlariga ta'siri katta. "Sayyid Nasafiyning e'tiroficha, Budda ta'limoti Zardushtiy

an'alarini vujudga kelishiga ta'sir ko'rsatgan". Lekin, bir guruh mutaxassislar tomonidan zardushtiyluk dini dunyoning keng qadimgi dini sifatida qayd etilgan. Shuning uchun, bu ikki qadimgi dinlarning o'zaro bir-biriga ko'rsatgan ta'siri haqida gapirsak, xaqiqatga Yaqinroq bo'ladi. Ikkinchi guruh olimlarining

Buddaviyluk ruhoniylari xalqaro miqyosda uning mavqeini kuchaytirishga harakat qilmoqdalar. Shu maqsadda buddaviylukning turli tashkilotlarini birlashtirmoqdalar, buddistlarning xalqaro konferentsiyalari, s'ezdlarini muntazam o'tkazmoqdalar.

Buddaviylukning bir necha xalqaro tashkilotlari mavjud. Shulardan eng yirigi Jahon buddistlari qardoshligidir. U 1950 yili tuzilgan. 1956 yilda otaxon buddistlarining bu din paydo bo'lganligini 2500 yilligi nishonlandi.

Markaziy Osiyoda bir necha yuz mingdan iborat koreys millatiga mansub kishilar yashaydi. Ularning oilaviy-maishiy an'alarini, milliy udumlarining ayrim tarkibiy qismlari mahoyana (shimoliy) ko'rinishdagi buddaviyluk ta'sirida shakllangan. Xozirgi vaqtda bu mintaqada, ayniqsa, O'zbekistonda koreys buddistlarni xristianlik ta'siriga olishga qaratilgan harakatlar avj olmoqda.

Buddaviyluk manbalari. Buddaviyluk ta'limoti bir qator devon shakliga keltirilgan to'plamlarda bayon qilingan. Ulardan eng asosiysi Tripitaka (yoki Tipitaka) - uch savat ma'nosini anglatadi. U uch qismdan iborat bo'lganligi uchun shunday nom bilan atalgan. buddaviylukning bu yozma manbasi hozirgi davrda Shri-Lankada saqlanib qolgan. U eramizning boshlarida shakllangan. Ular - budda targ'ibotining haqiqiy bayoni hisoblangan sutra matnlari (sutta-pitaka), rahboniylik axloqi va xonaqoqlar nizomlariga bag'ishlangan vinaya matnlari (vinaya-pitaka), buddaviylukning falsafiy va psixologik muammolarini bayon qilib berishga bag'ishlangan abxidxarma matnlari(abxidxarma-pitaka)dan iborat. Keyinchalik shakllangan sanskrit, xitoy, tibet, kxmer va yapon tillaridagi buddaviylukka oid adabiyotlar ancha keng tarhalgan, ammo ularning tarixiy qiymati kamroq. Buddha hayotiga tegishli rivoyatlarning barchasi Tripitakada jamlangan.

Takrorlash uchun savollar:

1. Buddaviylik dini qachon va qayerda vujudga kelgan?
2. Buddaviylikning asoshisi kim?
3. Ilk Buddaviylik ta'limoti asosi nimalardan iborat?
4. Xinayana va Maxayana orasidagi asosiy farqlar nimalardan iborat?
5. Markaziy Osiyoda Buddaviylik tarixini o'rganishning qanday ilmiy muammolari bor?
6. Buddaviylikning manbasi qanday nomlanadi?